



TOG‘AY MUROD ASARLARIDA MAQOLLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

G.A.Tursinbayeva

O‘zbekiston Milliy universiteti

Lingvistika (o‘zbek tili) 2-bosqich magistranti

gtursinbaeva259@gmail.com

+998977888830

Annotatsiya: Proverbial birikmalar xalqning madaniyatini va ruhiyatini, shu bilan birgalikda qonun-qoidalarini avloddan avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham antroposentrik tilshunoslikning lingvokulturologiya bo‘limida maqol va matallar, frazeologik komponentli birliklar, tasviriy ifodalar hamda metafora asosiga qurilgan birliklar asosiy obyekt sifatida o‘rganib kelinmoqda. Bu kabi idomalar xalqning fikrlash tarzi va yashash sharoitini yaqqol aks ettirganligi uchun ham ularni badiiy asarlar va makromatnlar tarkibida o‘rganish hamda ular ustida tadqiqotlar olib borish antroposentrik tilshunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Obyekt sifatida olingan Tog‘ay Murodning asarlarida bu kabi proverbial birikmalar milliy urf-odatlarini va o‘zbek xalqining hayot tarzini aks ettiruvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: proverbial birikmalar, lingvokulturologiya, idiomalar, stereotip, sinonim, antitetik, sintetik, integral, parabolik, qiyoslash.

Аннотация: Пословичные сочетания играют важную роль в передаче культуры и духа нации, а также ее законов из поколения в поколение. Именно поэтому в лингвокультурологическом отделе антропоцентрического языкознания в качестве основного объекта изучаются пословицы и поговорки, единицы с фразеологическими компонентами, изобразительные выражения и единицы, построенные на основе метафор. Поскольку такие фразеологизмы ярко отражают образ мышления и условия жизни людей, их изучение в составе художественных произведений и макротекстов и проведение по ним исследований внесут большой вклад в развитие антропоцентрической лингвистики. В произведениях Тогая Мурада, взятые за объект, подобные пословичные сочетания служили важным средством отражения национальных традиций и быта узбекского народа.

Ключевые слова: пословичные соединения, лингвокультурология, фразеологизмы, стереотип, синоним, антитетическое, синтетическое, интегральное, параболическое, сравнение.

Abstract: Proverbial combinations play an important role in the transmission of the culture and spirit of the nation, as well as its laws, from generation to generation. That is why proverbs and sayings, units with phraseological components, pictorial expressions and units built on the basis of metaphors are being studied as the main object in the linguocultural department of anthropocentric linguistics. Since such idioms clearly reflect the people's way of thinking and living conditions, studying them as part of artistic works and macrotexts and conducting research on them will greatly contribute to the development of anthropocentric linguistics. In the works of Togay Murad, taken as an object, such proverbial combinations served as an important means of reflecting national traditions and the way of life of the Uzbek people.

Key words: proverbial compounds, linvoculturology, idioms, stereotype, synonym, antithetic, synthetic, integral, parabolic, comparison.

KIRISH. Ma'lum bir tilni tushunish uchun o'sha tilning so'z boyligi va grammatik qoidalarini bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Boshqa bir tilni o'rganish va tushunish uchun, o'sha xalqning madaniyatini o'rganish bilan bir qatorda, tildagi eng ko'p ishlatiladigan maqol va idiomalarni bilish kerak. Maqollar – xalqning bir necha ming yillar davomida turmush tarzida sinalib, anglangan haqiqatlar ixcham, axloqiy baho sifatida umumlashtirildi. Buyuk rus ijodkori L.N.Tolstoy “Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko‘rinadi” [3, 4],– deb ta'kidlaydi va shu bilan birgalikda maqollarda xalqning milliy urf – odatlari va an'analari aks etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Maqollar xalq fikrlash tarzi, dunyoqarashini va mafkurasini yanada teran anglashga imkon beruvchi milliy-madaniy birliklardir. Folklor namunalari xalqning xalq bo'lib rivojlanish va shakllanish paytidan hozirgacha bo'lgan bosib o'tgan yo'li, hayot tajribalari, quvonch-shodliklari, mehnat-mashaqqatlari, shuningdek, xalqning donoligi va zakovatini namoyon qiluvchi o'ziga xos bir madaniyat ko'zgusidir. Shu sababdan ham, XX asrning boshlaridan boshlab maqollar ma'lum bir qolipga solib tadqiq etila boshlandi. M.Abdurahimov, X.Abdurahmonov, M.Sodiqova, H.Karomatov, H.Berdiyev kabi olimlarning tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y.Chernyavskiy, V.Ro'zimatov (1959), N.Gatsunayev (1983, 1988), A.Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida bosilib chiqdi [2, 14].

T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov, Sh.Turdimov kabi olimlar tomonidan o'zbek xalq maqollari to'planib, ma'nolari izohlab berilgan “O'zbek xalq maqollari” nomli kitobi nashr etildi [2, 14].

Bugungi kunda maqollar bo'yicha qilingan ishlar ichida B.Jo'rayevaning “O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida maqollar turli jihatdan tahlilga tortilishi bilan birga, pragmatik va semantik

xususiyatlariga ham alohida urg‘u berilgan. Bu tadqiqot ishida o‘zbek xalq maqollarini sinflashtirish orqali ma’nolarni izohlashga asosiy e’tiborni qaratadi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, idomalar, paremiologik birliklar va ularning tarkibidagi o‘xshatish va qiyoslash asosiga qurilgan murakkab komponentli birliklar odatda, lingvokulturologiya tarkibida o‘rganiladi, chunki bu kabi birikmalar ma’lum bir xalqning umumiy streotipini shakllantirishda va namoyon qilishda muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda, tilshunos D.Baxronovning “Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi” bu ilmiy ishda frazeologik birliklar bilan birgalikda maqollarning lingvokulturologik ma’nolari boshqa tillar bilan qiyosiy tarzda taqqoslab o‘rganish metodi orqali ochib berilsa, tadqiqotchining boshqa bir ilmiy ishida zoonim komponentli birliklar va maqollarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan.

NATIJALAR. Ushbu tadqiqotimizda Tog‘ay Murod asarlaridagi proverbial birikmalar semantik va lingvokulturologik jihatdan tahlilga tortilgan. Shu bilan birga ular geografik joylashuviga ko‘ra va lingvistik xususiyatlari hisobga olingan holda tasniflanib izlanish olib borildi. Bu o‘rinda maqollar joylashishiga ko‘ra tasnifi quyidagicha turlarga ajratiladi [415, 13]:

Umumjahon maqollari – dunyoning madaniy jihatdan bir-biriga aloqasi bo‘lmagan qismlariga oid maqollarni qiyoslaganda, nafaqat bosh g‘oyasi, balki ifoda qilish tarzi, ya’ni og‘zaki nutqi ham bir xil yoki deyarli yaqin ma’noda bo‘lgan bir nechta maqollarni topish mumkin. Bular, asosan, kundalik kuzatishlarning natijasi o‘laroq paydo bo‘lgan oddiy va sodda ifodalari yoki jamiyatning belgilab qo‘ygan umumiy axloqiy tushunchalarining ifodasidir, biroq doimiy va oddiy kuzatishlarning barcha ifodalari hamma tillarda maqol darajasiga ko‘tarilgan emas. Masalan,

№	Ingiz tili	Turk tili	O‘zbek tili
1.	<i>Great minds think alike</i>	<i>Akln yolu bir</i>	<i>Buyuk odamlar bir xil fikrlashadi</i>
2.	<i>There is no smoke without fire</i>	<i>Ateş olmayan yerden, duman çıkmaz</i>	<i>Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi</i>

Mintaqaviy maqollar – madaniy jihatdan bir-biriga o‘zaro aloqador bo‘lgan mintaqalardagi mamlakatlarda foydalaniladigan maqollar kiritiladi. Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan turkiy xalqlar orasida quyidagi maqollar ma’no va ifoda planlari jihatdan deyarli bir xildir.

№	Turk tilida	Qozoq tilida	O‘zbek tilida
1.	<i>Kizim sana söylerim gelinim san eşit</i>	<i>Қызым, саған айтам, келінім, тыңда</i>	<i>Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit</i>
2.	<i>Ağzın kan dolu olsa bile düşmanının önünde tükürme</i>	<i>Аузың қанға толса да, жауыңның қасында түкірме</i>	<i>Og‘zing to‘la qon bo‘lsa ham dushmaning oldida tupurma</i>

Ko‘rib turganimizdek, bu maqollar semantik jihatdan bir xil ma’noga ega bo‘lsa-da, ular fonetik jihatdan biroz farqlanadi. Sababi, yuqorida keltirilgan misollar uchta lahjaga oiddir (turk tili – o‘g‘uz, qozoq tili – qipchoq, o‘zbek tili – qarluq).

№	O‘zbek xalq maqollari	Izohi
---	-----------------------	-------

1.	<i>Alp – otadan, zot – onadan-da! [105, 12]</i>	<i>Turkiy xalqlarda ko‘plab alplar yetishib chiqqan hamda alplik, mardlik xislatlari asosan, otadan o‘tganligi sababli ushbu maqol kelib chiqqan.</i>
2.	<i>Aslini bilmay, so‘z demaslar, Naslini bilay, qiz bermaslar. [5, 8].</i>	<i>Xalqimizda qiz uzatish, o‘g‘il uylantirish bilan bog‘liq maqollar ko‘p. Mazkur maqolda ham qadimdan turkiy xalqlar qizlariga kuyov tanlaganda, albatta, nasl-nasabini, tag-tugini surishtib undan keyin qizlarini berish odati aks etadi.</i>

Leksikologiyaga asoslangan tasniflash oltita asosiy turlarga ajratiladi [415, 13]:

1. Sinonimlar
2. Antitetik
3. Sintetik
4. Integral
5. Parabolik
6. Qiyoslash

Sinonimlar – bu har ikki satr ham mohiyatdan bir xil ma’no bildiruvchi, lekin ifodalanish tarzi jihatidan farqli maqol. Jar solib yoyadi, karnay qilib chaladi-ku! [142, 11]. Bu chaqimchi, og‘zida gap turmaydigan insonlarga nisbatan qo‘llaniladigan maqoldir. Umuman olganda, kimdir haqida nimanidir eshitib qolsa, agar bu xabar uning sha’niga dog‘ tushiradigan xabar bo‘lsa, butun dunyoga xuddi to‘yda karnay-surnay chalgandek qilib, ovoza qiladi.

Boshidan o‘tmaganni, qoshidan o‘tma, deydilar [22, 11]. Bu maqol qardosh xalqlarda ham mavjud bo‘lib, qisman o‘zgargan holatda foydalaniladi. Turk tilida “ateşten geçmeyene ateşi anlatamazsın” shaklida ishlatiladi. Inson boshidan o‘tkazmagan voqealarni kimdir dil to‘kib, tushuntirgani bilan ham tushunmasligi va uni his qilmasligi ta’kidlangan. “Birovdan o‘tganni birov bilmaydi”, “tanasi boshqa dard bilmas, uyi boshqa mung bilmas”, “Og‘u ichganni ichi biladi” – ma’nodosh maqolar [45, 15].

Davlat-da egiz, mehnat-da egiz [102, 10]. Bu maqolda “davlat – baxt-saodat, boylik, omad va muvaffaqiyat ma’nosida kelgan bo‘lsa”, “mehnat – g‘am-tashvish, ko‘rguliklar ma’nosida kelgan”. Shuningdek, agar insonning bir omadi kelsa, ketma-ket muvaffaqiyat ustiga muvaffaqiyat qozonadi. Agar bir omadsizlik kelsa, keti boshqa ko‘rguliklarga ulanib ketishiga ishora qilinmoqda [73, 15]. Shartli sinonim vazifasida kelgan hamda “egiz” leksemasini takror qo‘llash ma’no kuchaytirish vazifasini bajarishi uchun takroran qo‘llangan.

Antitetik – tasnifga ko‘ra, birinchi satrida ma’lum bir tushuncha ifodalangan bo‘ladi, keyingi qatorida esa o‘sha fikrning negativ jhati yoritilgan bo‘ladi. Boshqacha tarzda ifodalansa, antonimlik hodisasi sifatida ham qabul qilish noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi! [110, 8]. “Tuproqni changitsang, ko‘zingga uradi”, “ko‘kka tupursang, yuzingga tushadi” – bu maqollar yuqoridagi maqolning semantik jihatdan

ma‘nodoshi hisoblanib, quyidagicha mazmun ifodalaydi: tinch yotgan narsani qo‘zg‘atma, ziyoni senga uradi [29, 15].

Bedana tezotar bo‘lsa, o‘z boshini o‘zi yoradi! [111, 8]. Ilgari qishloqdagi bedana ishqibozlari donqovoqning urug‘ini olib tashlab, havo kirib tursin uchun u yer – bu yerini teshib, ichiga bedana solib qo‘yardi. Shaharliklar esa, bedanani asosan, yog‘och gardishli to‘rga solib qo‘yardilar. Bedana (xo‘roz kabi) boshini ko‘tarib-ko‘tarib sayraydi. Agar u tez-tez sayraydigan bo‘lsa, boshi to‘rqovoqqa ketma-ket urilaveradi, yo boshining pati tushib ketadi, yo yoriladi. Maqolning majoziy ma‘nosi shuki, kishi tilim bor deb gapiraversa, bir kunmas - bir kun baloga girtor bo‘ladi [29, 15]. Shu ma‘noni berish uchun Tog‘ay Murod bu xalq maqolini o‘z asarida qo‘llagan.

Bir qishning bir yozi bo‘ladi, qarg‘aning qag‘illagani qoladi! [112, 8]. Bu proverbial birikmada “qish” va “yoz” leksemalari antonimlik hosil qilishi bilan birga, zidlash orqali maqolning ma‘nosi aniq ochib berilgan. “Qarg‘a” zoonimi qo‘llanilishi esa salbiy ottenga tashib, doimiy tarzda tanqid qiluvchi insonlarga metafora asosida ishora qilgan, bunda “qarg‘a”ning qag‘illash xususiyati metaforaga asos vazifasini o‘tagan. Bu maqol “oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘” maqoli bilan sinonim hisoblanib, yo‘qlik, muhtojlikda qiynalgan kunlaringda senga ta‘na qilganlar valdiragancha qolaveradilar. Bunday ta‘nalarni o‘zingga olma, o‘ksinma, umidsizlanma, aksincha dadil bo‘l, qilayotgan ishingni davom ettiraver. “Qish o‘tar, qoralik qarg‘aga qolar”, “Bu dunyo o‘tar – ketar, yuzi qoralik senga qolar” – bu maqollar ham ma‘nodosh sifatida xalq orasida keng foydalaniladi [41, 15].

Sintetik – bu tipdagi maqollarda ikki satr mutlaqo boshqa boshqa ma‘nolarni va ehtimol bir-biriga zid fikrlarni ifodalashiga qaramasdan, bitta umumiy mavzuga ega bo‘lishi bilan boshqalaridan farqlanadi. Masalan, Aql yoshda emas, aql boshda [33, 7]. Lingvistik jihatdan “yosh” va “bosh” so‘zlari antonim bo‘la olmaydi, lekin bu gapda shartli antonimlik hodisasini vujudga keltirgan. Bu maqol “Bo‘ladigan bola boshidan ma‘lum” maqoli bilan ma‘nodosh bo‘lib, inson yoshidan qat‘iy nazar har yoshda ham aql sohibi bo‘lishi mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda qadimda bolalar besh yoshdan boshlab, hisob-kitob va savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanganligini kichik yoshdan boshlab ko‘plab bilimlar egasi bo‘lishga o‘rgatilganligi turkiy xalqlarning o‘ziga xos jihatlaridan biridir.

Bolamni to‘ygunimcha boqaman, nevaramni o‘lgunimcha boqaman. [67, 7]. Bu maqolda o‘zbek, nafaqat o‘zbek, balki butun Osiyo xalqlariga xos bo‘lgan milliy madaniyat yaqqol aks etadi. Ayollar farzandli bo‘lganida farzandiga butun borlig‘ini baxsh etadi, nevarali bo‘lganda ham bu jarayon yana takrorlanadi. Lekin shunday maqol ham borki, xalq ichida “Ayol ona bo‘lganini birinchi farzandini qo‘liga olganda biladi, erkak otalik baxtini his qiladi birinchi nevarasini qo‘liga olganida” bu maqollar deyarli ma‘nodoshdir.

Bo‘laman degich el, bir-birini botirim deydi, bo‘lmayman degich el bir-birini etini yeydi [3, 7]. “Olti ovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar, to‘rtovlon tugal bo‘lsa, tepadagin indirar” maqoli bilan sinonim. Birlashishga chorlovchi hikmatli idiomatik birlik. Qisman grammatik o‘zgarishlar bilan qo‘llanilgan mahalliy shevaning ta‘siri ostida, ya‘ni maqol tarkibida “degich”

leksemasidagi dialektal shakl, asosan, affiksda aks etgan. Chunki adabiy tilda “degich” leksemasi o‘rnida “degan” leksemasi ko‘p foydalaniladi, lekin shuni ham hisobga olish kerakki, Tog‘ay Murod ijodidagi bunday o‘zgachaliklar lingvokulturologik jihatdan asarni boyitishda muhim rol o‘ynagan.

Egachim elakli bo‘ldi, elagi tilakli bo‘ldi [32, 12]. “Lo‘li elakli bo‘ldi, elagi kerakli bo‘ldi” bu maqollar biror narsani vaqtincha foydalanish uchun so‘rab kelgan odamga bor bo‘la turib yo‘q deydigan ziqna odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo‘llaniladi [372, 15].

Integral – bunday maqollarda ikkinchi qatordagi fikr birinchi qatordagi fikrining izohi tarzida beriladi. Boboning tol tikkani, o‘ziga nom ekkani [49, 11]. Yuqoridagi maqolning ikkinchi satrida “o‘ziga nom ekishi” jumlasining izohi birinchi satrda ochib berilgan. Bunga ko‘ra, inson bu dunyoda boshqalarga yaxshilik qilib yashash orqali o‘zidan keyin ham nomi yashashi, sharflanishi, boshqalarga o‘rnak sifatida keltirilishi, hech qanday yaxshilik qilolmagan taqdirda bittagina ko‘chat ekishi orqali ham yaxshilik qilishi mumkinligiga ishora qilingan. Shuningdek, “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘” maqolining ham ma‘nodoshi sifatida xalq orasida foydalaniladi.

Botar kunni otar tongi bo‘ladi [19, 7]. Quyosh botib, zulmat cho‘mgan bo‘lishiga qaramay, insonlar biladiki, ertaga yana tong otishini va quyosh nurlari yorug‘lik taratishini. Bu jarayon badiiy adabiyotda qancha yomonlik va yovuzliklar inson hayotida sodir bo‘lmasin, yana yaxshi kunlar kelishiga ishonch bildiradi. Inson hayotida hamma narsa tugashi mumkin, lekin yorug‘ kelajakka oid bo‘lgan ishonch va umidi hech qachon so‘nmasligini ko‘rsatib beradi. Leksikologik jihatdan esa “botmoq” va “otmoq” so‘zlari o‘zaro antonimlik hosil qilmoqda

Bo‘ydoqning aqli ikki ko‘zida bo‘ladi [134, 10]. “Bo‘z yigit ko‘zi bilan qiz olma”, “ot olma piyodaning maslahati bilan, xotin olma bo‘ydoqning maslahati bilan” – bu maqollarda shunday ma‘no aks etganki, oti yo‘q, piyoda yurgan odam yaxshi ot qandayligini bilmaydi, bo‘ydoq yigit ham xotinning yaxshi yomonini bilmasligi” nazarda tutilgan [62,15].

Elakka bormish ayolning ellik og‘iz gapi bor [78, 8]. Ayollarning ko‘p gapirish xususiyati tanlangan va elak bahona qo‘shnilar bilan soatlab suhbat qurishgan, shu asosda maqol yuzaga kelgan. Rus xalqida ham shu maqolga o‘xshash shakldagi “gugurtga ketib” frazemasi foydalaniladi. Bunda “gugurt” va “elak” bir xil vazifa bajaradi va ikki xil madaniyatdagi qadriyatlarni aks ettiruvchi vositalar ekanligiga ishora qiladi. Shu bilan birga, “bormish” leksemasi o‘rnida adabiy tilda “chiqqan” so‘zi ishlatiladi, ya‘ni “Elakka chiqqan xotinning ellik og‘iz gapi bor” tarzida, bu shaklda qo‘llanilishi dialektal farqlarni ko‘rsatib berishda va lingvokulturologik o‘zgarishlarni aks ettirishda katta yordam beradi.

Parabolik – birinchi qatordagi jumlaning ikkinchi satrda ko‘rsatadi. Dehqon ko‘zi tarozi bo‘ladi, Dehqon ko‘ngil qozi bo‘ladi. [65, 7]. Bu leksikologik jihatdan o‘zgarishga uchragan maqol bo‘lib, “dehqon” so‘zi o‘rnida “kishi” so‘zi ishlatiladi, lekin Tog‘ay Murod asari dehqonchilik mavzusiga oid bo‘lganligi sababli “kishi” so‘zi o‘rniga “dehqon” leksemasini tanlaydi va bu maqolning variantdoshini vujudga kelishiga sababchi bo‘ladi. Shuningdek, “bo‘ladi” leksemasi takroriy shaklda qo‘llanilgan bu esa ma‘noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xalq qo‘llasa, bor bo‘ladur, xalq qarg‘asa – xor bo‘ladur [10, 7]. Bu proverbial birikma ham grammatik shakl jihatdan o‘zgarishga uchragan. Adabiy tilda “Xalq qarg‘asa zor bo‘ladi, xalq qo‘llasa bor” tarzida uchraydi, takroriylik ma‘noni kuchaytirgan bo‘lsa, morfologik o‘zgarishlar, ya‘ni affiksalar o‘zgarishlar ma‘lum bir davrni aks ettiruvchi vositalar vazifasini o‘tagan. Chunki, “bo‘ladi” leksemasi XXI asrni aks ettiruvchi belgi hisoblansa, bundan bir asr avval “bo‘ladur” shakli foydalanilgan.

Qiyoslash – bu maqolda umumiy xususiyatni ko‘rsatish uchun bir narsani boshqa narsa bilan solishtirish. Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur [45, 9]. Bu maqol tulkining tilidan aytilgan bo‘lib, tulki yog‘ga o‘ch bo‘ladi. O‘tmishdagi ovchilar uni tutish uchun qopqonni tuproqqa ko‘mib, ustiga bir parcha dumba yog‘i qo‘yib qo‘yardilar. Tulki uni yeyman deb kelib, qopqonga ilinardi. Ammo hamma tulkilar ham osonlikcha qo‘lga tushavermasdi. Chunki, tulki yovvoyi hayvonlar orasida eng sezgiri, ayyori va xushyoridir. Mazkur maqol shuning natijasida yuzga kelgan bo‘lib, majoziy ma‘noda odamlarni sezgir va xushyor bo‘lishga undaydi[36,15].

Bo‘laringda bo‘lib o‘t, bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t [44, 8]. Inson yoshligida nimaga erishsa, erishgani, qariganda harakat qilish befoyda ekanligi aks etgan.

Yoshligida odatlansang, qariguncha ko‘nikasan.

Qariganda odatlansang, ko‘nikuncha ko‘milasan. (Tohir Malik “Odamiylik mulki”).

MUHOKAMA. Yuqorida keltirilgan tarzda maqollar tahlilga tortilsa, ularning lingvokulturologik xususiyatlarini yoritishda katta hissa qo‘shish bilan birga, boshqa qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan aloqasini ko‘rsatib berishda ham shunchalik muhim o‘ringa ega bo‘ladi. Tog‘ay Murod romanlaridagi paremiologik birliklarning bunday sinflashtirilishi orqali o‘zbek xalqning fikrlash tarzi, dunyoqarashi, yashash sharoiti va madaniyatining yaqqol namunasini ko‘rsatishimiz mumkin.

XULOSA. Maqollarda, asosan, borliqning lingvistik tasviri namoyon bo‘ladi, bu ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan olamni idrok etishning tasviriy va yorqin usulidir. Dunyoning lingvistik tasviri - xalqning ko‘p asrlik tajribasi bilan ishlab chiqilgan tasviri sifatida avloddan avlodga o‘zgarishlar va rivojlanishlar bilan o‘tib boruvchi va xalqning donoligi, topqirligi va kuzatishlari asosida yuzaga keluvchi murakkab komponentli birikmalardir. Bu kabi birikmalar Tog‘ay Murod asarlarda foydalanish milliylikni va qadriyatlarni barhayot va bardavom bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Paremiologik birliklar orqali shakllangan dunyo manzarasini tahlil qilib, uning asosiy xususiyati – antropotsentrizm ekanligini ajratib ko‘rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aksoy Ömer Asım “Atasözleri ve Deyimler Hakkında III”, Türk Dili II/16, (Ocak 1953).
2. Baxronova D.K. Olam manzarasining milliy- madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. Fil.fan.dok... dis. – Toshkent: “TURON-IQBOL” nashriyoti, 2021.

3. Baxronova D.K. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari. Avtoref.dis...(PhD). – Toshkent, 2017.
4. Ismatullayev.X Inglizcha maqol, matal va idiomalari. – Toshkent, «O‘qituvchi» 1969.
5. Jo‘rayeva.B O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. Fil.fan.dok...dis. avtoreferati.- Samarqand-2019.
6. Mirzaev T. O‘zbek xalq maqollari.- Toshkent: SHarq, 2012.
7. Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
8. Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
9. Tog‘ay Murod “Momo yer qo‘shig‘i”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
10. Tog‘ay Murod “Ot kishnagan oqshom”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
11. Tog‘ay Murod “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
12. Tog‘ay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”. “Pharos ambition”, Toshkent – 2024.
13. Xaydarova N.G. Maqol va hikmatli so‘zlarni folklore janri sifatida tasniflashning mohiyati va tamoyillari. “Science and education” Scientific journal. September 2023 / Volume 4 Issue 9.
14. T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov, Sh. Turdimov. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi bosh tahririyati, 2005.
15. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Ma’nolar maxzani. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2001.